



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG‘I

20 25 yil “16-yanvar”

№ 16

Toshkent sh.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatida ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlarni axborot resurslarida joylashtirish va yangilab borish tartibini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida” 2014-yil 5-maydagi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, **buyuraman:**

1. Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatiga oid ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. 2025-yil 13-yanvardan ro‘yxatga kiritilgan ma‘lumotlarni rasmiy veb-sayt, Ochiq ma‘lumotlar portali va boshqa axborot resurslariga joylashtirishning quyidagi tartibi o‘rnatilsin:

Ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan har bir ma‘lumot mas‘ul tarkibiy tuzilma tomonidan belgilangan tartibda sifatli va to‘liq ishlab chiqilib, ularni elektron shaklda Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasiga taqdim etilsin;

Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasiga taqdim etilgan barcha ma‘lumotlar buyruq ijrosini ta‘minlash maqsadida shu kunning o‘zida mas‘ul tomonidan “edo.ijro.uz” tizimiga kiritib borilsin;

Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Eshnazarov) Vazirning Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va davlat tili bo‘yicha maslahatchisi (S.Tursunov) tomonidan matnlarning orfografik, grammatik va uslubiy jihatdan to‘g‘riligi tasdiqlangach, taqdim etilgan ma‘lumotlarning rasmiy veb-sayt, Ochiq ma‘lumotlar portali va qonunchilik hujjatlarida ko‘rsatilgan boshqa axborot resurslariga belgilangan format hamda o‘lchamlarda joylashtirilishini ta‘minlasin.

3. Mas‘ul tarkibiy tuzilmalar tomonidan Ro‘yxatda ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni

Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasiga taqdim etishning oxirgi muddati (*ma'lumotlarni yangilab borish muddati qonunchilik hujjatlarida aniq belgilangan holatlar bundan mustasno*) quyidagi tartibda hisoblanadi:

doimiy (*muntazam*) yangilab boriladigan ma'lumotlar — **bir kundan kechiktirilmay;**

har oyda yangilab boriladigan ma'lumotlar — **keyingi oyning uch ish kunida;**

har chorakda yangilab boriladigan ma'lumotlar — **har chorak yakunidan keyingi oyning beshinchi sanasiga qadar;**

har yarim yillikda (har olti oylik) yangilab boriladigan ma'lumotlar — **har olti oy yakunidan keyingi oyning uch ish kunida;**

har yillik (bir yilda bir marotaba) yangilab boriladigan ma'lumotlar — **har yil yakunidan keyingi yilning 15-fevraliga qadar.**

4. Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyatiga oid ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarning namunaviy shakllari 2-55-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

5. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (*N.Eshnazarov*) **har oy yakuni** bo'yicha Vazirlik faoliyatiga oid ochiq ma'lumotlarning ishlab chiqilishiga mas'ul etib belgilangan tarkibiy tuzilmalar tomonidan ma'lumotlarni Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasiga taqdim etish tartibining buzilishi holatlari haqida munosabat bildirish yuzasidan rahbariyatga o'z vaqtida takliflarni kiritib borsin.

6. Matbuot xizmati bo'limi (*F.Sanayev*):

Tahlillar va keng jamoatchilik fikrini o'rganish asosida rasmiy veb-saytda ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning sifatini oshirish choralari ko'rsin;

7. Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi (*A.Ibodullayev*):

Ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etmagan yoki noto'g'ri ma'lumot taqdim qilgan tarkibiy tuzilma rahbar va xodimlariga ijro intizomiga rioya qilmaganliklari uchun intizomiy javobgarlik belgilanishi haqida ogohlantirsin;

Mas'ul tarkibiy tuzilmalar tomonidan mazkur buyruq ijrosini ta'minlash maqsadida tegishli ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etilishi va "edo.ijro.uz" tizimiga kiritilishini nazoratga olsin.

8. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Sog'liqni saqlash vazirining "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining rasmiy veb-sayti (ssv.uz) faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 2021-yil 26-fevraldagi 40-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmasida qoldiraman.

Vazir



A. Xudayarov

Sog'liqni saqlash
vazirining
2025-yil "16.01" dagi
"16"-son buyrug'iga 1-ilova

Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyatida ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan
ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar

RO'YXATI

No	E'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlar toifasi	Ma'lumot joylashiriladigan axborot resurslari	Taqdim etish va yangilab borish muddati*	E'lon qilish uchun ma'lumotlarni taqdim etishi lozim bo'lgan mas'ullar*
1.	O'z faoliyatiga oid hisobot (<i>davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno</i>)	Rasmiy veb-sayt	Har yili <i>1-martga qadar</i>	Vazirlikning mustaqil bo'limlari
	O'z faoliyatiga oid hisobotni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilinishiga oid o'tkazilgan matbuot anjumanlari haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilish	Rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar	Har yili <i>1-aprelga qadar</i>	Matbuot xizmati bo'limi (F.Sanayev)
2.	Vazirlik faoliyatini yoritishga qaratilgan "Axborot xizmati" bo'limining barcha bo'limlarini zarur axborot bilan to'ldirib borish	Rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar	Doimiy	Matbuot xizmati bo'limi (F.Sanayev)
3.	Davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (<i>ishlar, xizmatlar</i>)	Ochiq ma'lumotlar portal, rasmiy veb-sayt	Har chorak yakunidan keyingi oying <i>10-sanasiga qadar</i>	Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (S.Islamov)
4.	Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida tizimda olib borilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar	Rasmiy veb-sayt	Har oyning <i>10-sanasiga qadar</i>	Korrupsiyani oldini olish va qarshi kurashish bo'limi (D.Rustamov)

5.	Rasmiy veb-sayting “Buyruqlar” bo‘limi uchun ma’lumotlarni taqdim etish	Rasmiy veb-sayt	Doimiy	Yuridik bo‘lim
6.	Aholi murojaatlari va eng ko‘p murojaat yo‘nalishlari bo‘yicha ma’lumotlar	Rasmiy veb-sayt	Har oyning <i>10-sanasiga qadar</i>	Murojaatlar bilan ishlash bo‘limi (R.Kurganov)
7.	Mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari (<i>xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog‘liq xarajatlar (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar bundan mustasno).</i>)	Ochiq ma’lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	Har chorak yakunidan keyingi oyning <i>10-sanasiga qadar</i>	Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (S.Islamov)
8.	Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari hisobiga xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (<i>ishlar, xizmatlar</i>) to‘g‘risidagi ma’lumotlar (<i>xarid e‘lon qilinishidan kamida 6 oy oldin</i>)	Rasmiy veb-sayt	Doimiy ravishda <i>(bir kundan kechiktirmay)</i>	Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (S.Islamov)
9.	Xorijiy investitsiya loyihalari doirasida hamda ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish bo‘yicha tashkil etiladigan xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqidagi qaror hamda komissiya a‘zolarining ma’lumotlari (<i>familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi</i>)	Rasmiy veb-sayt	Doimiy ravishda <i>(bir sutkadan kechiktirmay)</i>	Xorijiy investitsiyalar va grant loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Rasulov)
10.	Davlat siri bo‘lgan ma’lumotlarning yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirning muhofaza qilinishini ta‘minlagan holda tegishlicha o‘tkazilgan har bir o‘rganishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar	Ochiq ma’lumotlar portali	Har chorak yakunidan keyingi oyning <i>10-sanasiga qadar</i>	Ichki audit departamenti (R.Rahmonov)
11.	Ustav fondida (<i>ustav kapitalida</i>) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar hamda davlat unitar korxonalari ro‘yxati (<i>davlat nomidan aksiyador (ishtirokchi, mulkdor) funksiyalarini amalga oshirayotgan tashkilot, korxona hududi, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami, davlat ulushi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘rsatgan holda</i>), shuningdek, ustav fondining (<i>ustav kapitalining</i>) 50 foizi va undan ortig‘i davlat ishtirokidagi korxonalar	Ochiq ma’lumotlar portali	Har chorak yakunidan keyingi oyning <i>10-sanasiga qadar</i>	Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi (O.Safarov)

12.	Davlat ishtirokidagi korxonalar, shuningdek, ushbu korxonalarga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar tasarrufidagi yengil avtomobillar, xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlar	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	Har chorak yakunidan keyingi oynining 10-sanasiga qadar	Tibbiy jihoz, transport hamda insonparvarlik yordamini muvofiqlashtirish va hisobini yuritish bo'limi (O.Melibojev)
13.	Davlat muassasalari ro'yxati (<i>tashkil topgan sanasi, yuqori turuvchi organ</i>) hamda xususiy lashtirilgan davlat mulki obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar (<i>davlat sirini tashkil etuvchi maxfiy vazifa yuklatilgan davlat korxonalari va muassasalari bundan mustasno</i>)	Ochiq ma'lumotlar portali	Har chorak yakunidan keyingi oynining 10-sanasiga qadar	Investitsiya dasturlari, infratuzilma, energetika va xo'jalik ishlarini tashkil etish boqarmasi (I.Nabiyev)
14.	Tasdiqlangan yillik xarajatlar smetasi bilan bir qatorda, uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish va saqlash xarajatlari to'g'risidagi va boshqa ma'lumotlar	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	Har chorak yakunidan keyingi oynining 10-sanasiga qadar	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (U.Gaziyeva), Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (S.Islamov)
15.	Litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berishga vakolatli hamda xabarnomalarni qabul qiladigan organlarning hududlar kesimida mas'ul xodimlari, shu jumladan ushbu toifadagi hujjatlarni berishni tashkillashtiradigan tegishli komissiya a'zolari (<i>familyasi, ismi va otasining ismi, egallab turgan lavozimi</i>) to'g'risidagi ma'lumotlar	Rasmiy veb-sayt, "licence.gov.uz" sayti	Har chorak yakunidan keyingi oynining 10-sanasiga qadar	Xususiy tibbiyot va JST masalalari bo'limi (Sh.Gulyamov) "Farmatsevtika mahsulotlarini xavfsizligi markazi" davlat muassasasi

				(A.Temirov)
16.	Davlat oliy ta'lim muassasalarining daromadlari, xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiiy veb-sayt	Har chorak yakunidan keyingi o'yniing 10-sanasiqa qadar	Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi (O.Safarov)
17.	Davlat organlari va tashkilotlari huzuridagi jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a'zolari haqidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda ularning aloqa ma'lumotlari (<i>telefon, pochta va elektron manzillari</i>) hamda jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar	Rasmiiy veb-sayt	Har chorak yakunidan keyingi o'yniing 10-sanasiqa qadar	Vazir maslahatchisi (S.Tursumov)
18.	Vazirlkning tasdiqlangan yarim yillik va (yoki) yillik ish rejalari (<i>davlat sirlari va xizmada foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno</i>)	Rasmiiy veb-sayt	Har oli oy yakunidan keyingi o'yniing 15-sanasiqa qadar	Strategik rejalashtirish, statistika va samaradorlikni baholash boshqarmasi (D.Mirazimov)
19.	Doimiiy foydalanish uchun berilgan yer maydonlari va boshqa mullklarni davlat-xususiiy sheriklik asosida olgan yuridik va jismoniiy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar	Rasmiiy veb-sayt	Har chorak yakunidan keyingi o'yniing 10-sanasiqa qadar	Davlat-xususiiy sheriklikni rivojlantirish bo'limi (S.Abdukayumov)
20.	Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralarning tashqi yoki ishonchli boshqaruvga berilgan davlat ulushi mayjud bo'lgan xo'jalik jamiyatlari, ishonchli boshqaruvchi tomonidan jalb qilingan to'g'ridan to'g'ri xorijiiy investitsiiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar	Rasmiiy veb-sayt	Har chorak yakunidan keyingi o'yniing 10-sanasiqa qadar	Davlat-xususiiy sheriklikni rivojlantirish bo'limi (S.Abdukayumov)
21.	Davlat organlari va tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi xarid komissiiyasining ichki idoraviiy tartibi (mizom, reglament, yo'riqnoma yoki boshqa ichki idoraviiy hujjat)	Rasmiiy veb-sayt	Har chorak yakunidan keyingi o'yniing 10-sanasiqa qadar	Uzmedimpeks (X.Usmarov)

22.	Bo‘sh ish o‘rinlari (markaziy, hududiy va tizim tashkilotlarida), ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo‘yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar	Rasmiy veb-sayt	Har chorak yakunidan keyingi oying 5-sanasiga qadar	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (O.Sultonov)
23.	Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarga taqdim etilgan grant va ijtimoiy buyurtma loyihalari haqidagi ma’lumotlar, shu jumladan g‘olib bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning buyurtma doirasida bajargan ishlari yuzasidan hisobotlari haqidagi ma’lumotlar	Rasmiy veb-sayt	Har chorak yakunidan keyingi oying 10-sanasiga qadar	Xorijiy investitsiyalar va grant loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Rasulov)

* Mazkur ilovaning to‘rtinchi ustunida ko‘rsatilgan muddatlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmonida belgilangan muddatlar bo‘lib, ma’lumotlar ushbu muddatlarga mutanosib ravishda tegishli axborot resurslarida e’lon qilinishi (joylashtirishi) lozim. Ochiq ma’lumotlarni ishlab chiqishga mas’ul tarmoqlar tomonidan belgilangan ma’lumotlarni farmomning **3-bandida** ko‘rsatilgan muddatlarda Matbuot xizmati bo‘limiga taqdim etishlari kerak.

* Mazkur ilovada ko‘rsatilgan ochiq ma’lumotlarni ishlab chiqish, e’lon qilish va jiro etilishi ustidan nazorat qilishga mas’ul bo‘lgan tarkibiy tarmoq xodimlari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ushbu vazifalarini bajarishga ushbu lavozimga yangi tayinlangan xodimlar mas’ul hisoblanadi.